

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIM VAZIRLIGI**


NAMANGAN VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI

**NAMANGAN VILOYAT PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

KUG tarbiyachilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi
tinglovchilari uchun mutaxassislik (ixtisos) metodikasidan

MA'RUZALAR MATNI



Namangan-2009-yil

Ma'ruzalar matni NVPKQTMOI ning KUG tarbiyachilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursida tahsil oladigan tinglovchilarga mo'ljallangan.

Tinglovchilar mazkur ma'ruzalar matnidan ijodiy yondoshgan holda foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi:

S. Xudoynazorov- Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

Z. Normatov- Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi.

S.Turg'unov- Namangan shahar 18-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi.

Ma'ruzalar matni maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasining 2008-yil dekabrda yig'ilishda muhokama qilinib ma'qullandi va institut ilmiy-metodik kengashiga tavsiya etildi.

NVPKQTMOI ilmiy-metodik kengashining dekabr 2008-yildagi ____sonli qarori bilan ma'qullandi va chop etishga tavsiya etildi.

KUG tarbiyachilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi
tinglovchilari uchun mutaxassislik (ixtisos) metodikasidan
Davlat talablari asosidagi

MA'RUZAIAR MATNI

O'quv va metodik ishlar
bo'yicha protektor:i

_____ H. Soliyev

O'quv bo'limi boshlig'i:

_____ A.Mavlanov

Maktabgacha va boshlang'ich
ta'limi kafedrası mudiri:

_____ N. G'oyibnazarova

Maktabgacha va boshlang'ich
ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi:

_____ S.Xudoynazarov

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari va KUG tarbiyachilari uchun

Davlat talablari

Kurs tinglovchilari:

- boshlang'ich ta'limga tegishli me'yoriy- huquqiy, me'yoriy-uslubiy xujjatlarni bilishi;
- boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standartlari va ular asosida tuzilgan o'quv dasturlarini, yangi ta'lim standartlari va o'quv dasturlarni avvalgi dastur va talablardan farqini mukammal bilishi;
- maktabgacha ta'limning davlat talablarni, shuningdek umumiy o'rta ta'limdagi davlat ta'lim standartlarini bilishi va ularni hisobga olgan holda bu fanlarni o'qitishda uzluksiz va uzviylikni ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;
- boshlang'ich (1-4) sinflar o'quv xonalarini o'quv jixozlari, vositalari, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar bilan jihozlash tartibini, ro'yxatini, normativlarini bilishi hamda mahorat bilan o'tkazish tajribasiga ega bo'lishi;
- boshlang'ich ta'lim bo'yicha o'qitishning turli texnik –didaktik vositalari, mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-metodik adabiyotlarni tahlil qila bilishi, ularning bir-biridan farqi va afzalliklarini ajrata olishi;
- o'quvchilar bilimni baholashning turli usullarini tahlil qila bilishi, baholashning reyting tizimini esa mukammal bilishi va qo'llash malakasini egallashi;
- boshlang'ich sinflarda olib boriladigan ta'lim –tarbiya ishlari majmuasini, mazmuni, shakl va usullarini bilishi hamda bunday ishlarni olib borish malakasiga ega bo'lishi;
- boshlang'ich sinflarda yo'l harakati qoidalarini o'rgatish Mashg'ulotlarni tashkil etishni bilishi;
- boshlang'ich sinflarda Yangi dastur bo'yicha matematika, ona tili va o'qish (adabiyot) tabiatshunoslik, odobnoma, musiqa, tasviriyy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya fanlarini talab darajasida o'qitish mahoratiga ega bo'lishi;

- yangi axborot pedagog texnologiyalardan, o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtiruvchi usullardan xabardor bo'lishi va o'quv mashg'ulotlarida ulardan foydalanish malakasiga ega bo'lishi;
- o'z mutaxassisligi yo'nalishidagi ilg'or ish tajribalarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalanish malakasiga ega bo'lishi;
- darslarni kuzatish va tahlil qilish malakasiga ega bo'lishi;
- boshlang'ich ta'lim muammolari, bu sohadagi ilmiy izlanishlar, yangiliklar haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- boshlang'ich sinflarda ilmiy uslubiy, tajriba-sinov ishlarini olib borish tartib-qoidalarini bilishi;
- 6 yoshli bolalarni pedagogik – psixologik tashxis qilish haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- 1-sinf bolalari bilan individual ta'lim olib borishni , «tenglashtiruvchi» ta'lim berishning shakl va usullarini bilishi va amaliyotda ularni qo'llash malakasiga ega bo'lishi;
- oz komplektli sinflarda bir paytning o'zida turli dasturlar bo'yicha dars berishning shakl va usullarini mukammal egallagan bo'lishi;
- lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi, husnixati hamda husniyatga o'rgatish qoidalarini va usullarini mukammal egallagan bo'lishi;
- lotin yozuvchidagi matnni, she'rni bir harashda ifodali o'qish malakasiga ega bo'lishi;
- boshlang'ich sinflarda o'qituvchilarni attestasiya qili shva toifalarini ko'tarish tartib-qoidalarini haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- boshlang'ich ta'lim uchun pedagogik kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya ishlarining mazmun-mundariyasi, shakllari va bunday ishlarni tashkil qilish yo'l va usullarini bilishi;

- bog'cha maktab majmualari haqidagi Nizom, bunday majmualarda ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishning pedagogik shart-sharoitlarini, shakl va usullarini bilishi kerak.

Mavzu: Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli qarori asosidagi imlo qoidalari. 2 soat ma'ruza.

Maqsad: Davlat talablari asosida lotin yozuvi tarixi, lotin yozuviga o'tilishi, unga o'zgartirishlar kiritilishi va ayrim muhim imlo qoidalari haqidagi bilimlarini kengaytirish.

Kutiladigan natija: Tinglovchilarning yangi lotin yozuvi haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash.

Ko'rgazma: Imlo qoidalari aks ettirilgan plakatlar imlo lug'ati.

Reja:

1. **Kirish.** Lotin yozuvi tarixi haqida qisqacha ma'lumot.
2. Lotin yozuviga o'tilishi haqida qaror qabul qilinishi.
3. Lotin yozuviga o'zgartirishlar kiritilishi.
4. YPT asosida ayrim muhim imlo qoidalari.

1. Lotin yozuvi tarixi haqida.

O'zbekistonda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi davridan, ya'ni 1989-yil 21-oktabrdan lotin harflariga asoslangan o'zbek alifbosini qayta tiklash masalasi o'rtaga qo'yildi, bu yuzasidan matbuotda bir yarim yilga yaqin erkin munozara bo'ldi.

Ko'pchilik lotin alifbosini qayta tiklashni ma'qul ko'rdi. Bu masala O'zbekiston Oliy Kengashi sessiyasida ham alohida ko'rib chiqildi.

O'zbek tili uchun tuzilgan alifbo O'zbekistonda 1940-yildan beri qo'llanib kelinayotgan kirill harflari asosidagi o'zbek alifbosining lotincha harflar bilan almashtirilgan ko'rinishi bo'lib qolgan: kirillcha alifboda qaysi harflar bo'lsa, ular lotin harflarining o'xshashlari bilan ifodalangan kirillcha TS ni ts bilan fodalash tavsiya qilingan; unli tovushlarni ifodalashda old qator va orqa qator unlilar farqlanib ko'rsatilgan: u (u), o (o).

Umuman "O'zbek turkcasi alifbesi" o'zbek tilshunosligi fani yutuqlari darajasi yaratilgan emas edi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi jahonshumul voqea bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Natijada biz o'zligimizni angladik, bizni dunyo tanidi. Respublikamizdagi barcha sohalarida bo'lgani kabi yozuvda ham tub o'zgarish bo'ldi.

"Biz o'z farzandimizning baxt-u saodatini, iqboli va kamolotini ko'rishin istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla-ko'ydagi odamlarning xatti harakati ham bolaning shakillanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday

tasir ko'rsatishi haqida doimo o'ylashimiz, bu masalada zimmamizda qanday ulkan mas'uliyat borligini unutmasligimiz zarur”— degan edi Prezidentimiz I.Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat – yehgilmas kuch” asarida .

Darhaqiqat, mustaqillik bizga juda ko'p narsalarni berdi. Yurtimizda lotin yozuvini qayta tiklanishi ham bunga misol bo'la oladi.

1993 va 1994-yillarda Lotin harflariga asoslangan o'zbek alifbosini yaratishda ikki xil tamoyilda ish qilindi:

1. Amaldagi kirill alifbosi asosidagi o'zbek alifbosini asos qilib olib , u harflarni lotin yozuvidagi muqobil belgilar bilan almashtirish tamoyili chunonchi: yuqorida tilga olingan “O'zbek turkcasi alifbesi”, “O'zbek alifbosi va boshqalar”.

2. O'zbek adabiy tilidagi fonimalarni asos qilib olib, shu fonemalar uchun lotin alfbosidan harflar olish tamoyili, chunonchi “Lotin harfli o'zbek alifbosi” loyihasi va bu loyihaning 1993 va 1995 yillarda takomillashtirilgan ko'rinishlari.

1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida" qonun qabul qilindi va quyidagi harflar belgilandi.

Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohatlarimizning provard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqorolar uchun munosib shart-sharoitlarni tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi-degan edi, Prezidentimiz I.A. Karimov 1995-yil fevral oyidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida.

Lotin alifbosi asosidagi yozuv jahonga keng tarqalgan bo'lib, bu yozuv Qadimgi Rimda paydo bo'lgan miloddan oldingi II asrda takomillashgan lotin alifbosidan bizning davrimizgacha jahonning 70 dan ortiq mamlakat xalqi foydalanmoqda. Bundan 30 dan ortiq Ovropa, 20 dan ortig'i Osiyo, 20 dan ortig'i Afrika qit'alaridagi davlatlar xalqlaridir.

Dunyoda 5000 xil til bor. Bulardan 6 tasi til sifatida tan olingan. Bundan 3 tasining yozuvi lotin yozuvi asosida (ingliz, fransuz, ispan), 3 tasining yozuvi esa 3 xil: rus tiliniki kirill alifbosida, arab mamlakatlariniki arab alifbosida, xitoy tiliniki esa iyeografik yozuvlardir.

2. Lotin yozuviga o'tilishi haqida qaror qabul qilinishi.

Maktablarda 1927-1928-yildan boshlanib 1940-yil 8-maygacha lotin yozuvi asosida ish olib borilgan.

Sobiq Sho'ro hukumatinig 1937-yil 13-martda “Milliy respublikalar va viloyatlarda rus tilini majmuriy o'rgatish to'grisida” qarori chiqqan.

Shu hujjat asosida O'z SSR Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlar Sovetining “O'zbek maktablarida va ruscha bo'lmagan boshqa

maktablarda rus tilini majburiy o'rgatish haqida" 1938 –yil 3-aprelda, shuningdek, Xalq Komissarlar Soveti va O'zbekiston K(b)P Markaziy Komitetining "O'zbek maktablarida va ruscha bo'lmagan boshqa maktablarda rus tilini majburiy o'rgatishning amaliy tadbirlari haqida" gi qarorlari matbuotda berilgan. Shu asosida maktab o'quv rejalari ham qayta ko'rib chiqilgan. O'sha paytda O'zbekiston hukumati rahbarlari maktablarda rus tili o'qitishni yaxshilash tadbirlaridan biri lotin harflari asosidagi o'zbek alifbosini rus alifbosi bilan almashtirish, agar shunday qilinsa, rus tilini o'rganish osonlashadi, degan fikrga kelganlar. O'zbekiston Oliy Sovetining 1940-yil 8-mayda bo'lgan sessiyasida "O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alifbedan (alfavitidan) o'zbek yozuvini yanada yuksaltirish va rivojlantirish vositasi bo'lgan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbesiga (alfavitiga) ko'chirish haqida qaror" qabul qilinadi va "O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alifbedan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbesiga ko'chirish to'g'risida" qonun chiqadi; 4-iyulda Imlo qoidalari tasdiqlanadi. 4 moddadan tarkib topgan mazkur qonunda Respublikada lotinlashtirilgan yozuvdan yangi alifboga ko'chirish ishlarining hammasini 1942-yil 1-yanvargacha tugallash majbur etib tugallash majbur etib ko'rsatiladi.

Albatta bu ishlar shoshma - shosharlik bilan amalgam oshirilganligi uchun ham 75-80 yoshga borgan mahalliy millatlarga mansub kishilar Sho'ro davrida umrlari davomida 4 xil alifboda xat-savod o'rganishga majbur bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 2-3- sentabrdagi 12-chaqiriq 13-sessiyasida lotin yozuviga o'tish haqida qaror qibul qilindi va quyidagi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alofbosi yaratildi:

Lotin harfli o'zbek alifbosi

Harf	Tovush	Harf	Tovush
A a	o	L l	L
B b	b	M m	M
C c	j	N n	N
C c	ch	N n	(ng)
D d	d	O o	o', o
E e	e	P p	P
E e	a	R r	R
F f	f	S s	S
G g	g	S s	Sh
G g	g'	T t	T
H h	h	U u	u,u
X x	x	V v	V
I i	i	Y y	Y
J j	j	Z z	Z

K k	k	` apostrof	
Q q	q		

3. Lotin yozuviga o'zgartirishlar kiritilishi.

Lotin yozuviga asoslangan alifbo qabul qilingandan keyin ayrim muammolar kelib chiqdi. Bu ham bo'lsa s-sh, c-ch, n-ng kabilardagi unsurlar kompyuterda yo'qligi hamda o'zbek alifbosidan s va j harflarini chiqarilishi kabi o'zgartirishlar kiritish haqida kelishib olindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1-chaqiriq 2-sessiyasida (1995-yil 6-may) 1993-yil 2-sentabrda qonun asosida qabul qilingan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida qonun qabul qilindi. Shunga binoan alifboda 26 ta harf, 3 nutq tovushi esa harflar brikmasi bilan ifodalandi.

Lotin harfli o'zbek alifbosi

Bosma	Yozma	Harf nomi	Kirillcha harflar	Bosma	Yozma	Harf nomi	Kirillcha harflar
A a		a	A	Q q		qe	Q
B b		be	B	R r		er	R
D d		de	D	S s		es	S
E e		e	E	T t		te	T
F f		ef	F	U u		u	U
G g		ge	G	V v		ve	V
H h		he	H	X x		xe	X
I i		i	I	Y y		ye	Y
J j		je	J	Z z		ze	Z
K k		ke	K	O` o`		o`	O'
L l		el	L	G` g`		g`e	G'
M m		em	M	Sh sh		she	Sh
N n		en	N	Ch ch		che	Ch
O o		o	O	Ng ng		nge	NG
P p		pe	P				

Yangi lotin harflari asosida alifboni joriy etishi o'zbek tilining talabiga javob beradigan yangi imlo qoidalariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish bilan qabul qilinishga imkon yaratdi

Shu asosda 1995-yil 24-avgustda Respublika Vazirlar Mahkamasining 339 –sonli qarori bilan yangi imlo qoidasi tasdiqlandi.

Yangi imlo qoidasi 82 ta bo'lib 8 bo'limdan iborat.

1. Unlilar imlosi.
2. Undoshlar imlosi.
3. Asos va qo'shimchalar imlosi.
4. Qushib yozish.
5. Chiziqcha bilan yozish.
6. Ajratib yozish
7. Bosh harflar imlosi.
8. Ko'chirish qoidalari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. I.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” 2008-yil
2. Yangi tahrirdagi DTS - 2005-yil. Boshlang'ich ta'lim jo'rnali 5-son.
3. Sh. Rahmatullayev, A.Xojiyev O'zbek tilining imlo lug'ati–1995-yil
4. Y. Abdullayev – Hamrohim Toshkent – 1996-yil
5. Y. Abdullayev – Sovg'a Toshkent – 1996-yil
6. M. Muhammadiyeva- lotincha o'zbek alifbosini o'rganamiz Namangan – 1997-yil.
7. Y. Abdullayev, Sh. Yo'ldasheva- Yangi alifbo va imlo Toshkent-2000-yil.

TEST SAVOLLARI.

1. Lotin yozuvi avval qayerda paydo bo'lgan?
A) Qadimgi Rimda
B) Amerikada.
V) O'zbekistonda
G) Shvetsiyada
D) To'g'ri javob yo'q.
2. Lotin yozuviga qachon o'zgartirish kiritildi?
A) 1993- yil 2 -sentabrda
B) 1995 -yil 6 -mayda
V) 1997 -yil 13- sentabrda
G) Barcha javob to'g'ri
D) to'g'ri javob yo'q.

Mavzu: Ayrim muhim imlo qoidalari.

2 soat amaliy ish.

Maqsad: Kurs tinglovchilarida yangi imlo qoidalari haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash.

REJA:

1. Ё, Ю,Я, Е harflarining imlosi
2. Ё, Ю,Я, Е harflari bilan boshlanuvchi ism sharflarni qisqartirib yozish yo'llari
3. **Familiya hosil qiluvchi qo'shimchalar imlosi.**
4. **“Ъ” belgisining imlosi**
5. **“ Ъ” belgisining imlosi**
6. **“Ц” harfining imlosi**
7. **Tartib sonlar imlosi.**
8. **Chiziqchalar imlosi**

Imlo qoidalarini o'rgatishda ham YPT dan foydalanishning ahamiyati katta. Buning uchun tinglovchilarni kichik guruhlariga bo'linadi. Va shu kichik guruhlar bilan ishlanadi.

Biz quyida ayrim muhim imlo qoidalari to'g'risida to'xtatib o'tamiz. Masalan kiril yozivudagi yo, yu, ya, e harflari ishtirok etgan so'zlarni yangi imloda qanday yozilishini tushuntirish uchun kurs tinglovchilarini 4 ta kichik guruhlariga bo'linadi.

1. guruh – aniqlovchi
2. guruh – to'ldiruvchi
3. guruh – izohlovchi
4. guruh – bog'lovchi

Mashq sharti quydagicha bo'ladi. Doskaga quydagi kirill yozuvida yozib qo'yilgan so'zlar ilib qo'yiladi:

Ёз	стажёр	боксёр
+уёш	режиссёр	актёр
Юз	люстра	бюст
+уюн	костюм	бюро
Ях	октябрь	дворян
Суяк	фляга	словян
Ефретор	разъезд	пьеса
Ереван	съезд	Елена

Ana shular asosida 1-guruh ё harfi ishtirok etgan, 2-guruh ю harfi ishtirok etgan, 3-guruh я harfi ishtirok etgan 4-guruh esa е harfi ishtirok etgan kirill yozuvidagi so'zlarni berilgan oq qog'ozlarga yozib lotin yozuviga aylantiradilar. So'ng har bir guruh sardori yozgan so'zlarini doskaga qo'yadi. Shundan so'ng ma'ruzachi Ё, Ю,Я, Е harflari imlosiga doir qoidani aytadi, guruhlar yozganlarini tekshirib xato yozilgan so'zlarni to'g'rilaydilar. Ma'lumki yangi lotin alifbosida kirilldagi Ё, Ю,Я, Е harflari shaklan qabul qilinmagan, e harfi esa boshqa vazifa “Е” ga o'tgan.

1) Ё, Ю,Я, Е harflari ikki tovushni ifodalasa ikkita harf yoziladi.

Masalan: yoz-yoz, yuz-yuz, yax-yax, yer-yer.

2) Agar bu harflar bir unlini ifodalasa:

a) Asosan bitta harf yoziladi

Masalan: stajyor-stajor, lyustra-lustra, flyaga-flaga, sentyabr -sentabr, Lyudmila-Ludmila.

b) So'zning talaffuzida keskin o'zgarish, buzulish bo'lmasligi uchun ba'zan –yo, -yu, -ya, -ye yoziladi:

Masalan: boksyor- boksyor, byust-byust, slavyan-slavyan, montyor-montyor yelena-Yelena.

Ё, Ю,Я, Е Harflari bilan boshlanadigan ism-sharflarning yangi imloda qisqartirib yozilishi.

Bunda ham kichik guruhlarга Ё, Ю,Я, Е harflari bilan boshlanadigan ismlar topish aytiladi. Bunda 1-guruh Ya harfi bilan, 2-guruh Yu harfi bilan, 3-guruh Yo harfi bilan, 4-guruh ye harfi bilan boshlanadigan ismlarni familiyasi bilan birgalikda avval kirill yozuvida va uning yoniga lotin yozuviga aylantirib ismlarni qisqartirib yozishni topshiriladi. Ism familiyalar topshiriқ asosida yozib bo'lingandan so'ng Ё, Ю,Я, Е harflari bilan boshlanadigan ismlarni qisqartirib yozish qoidasi aytiladi. Guruh a'zolari qoidaga asosan yozganlarini tekshiradilar va yo'l qo'yilgan xatolar to'g'rilanib olinadi. Xatolarning oz ko'pligiga qarab guruh ishlari baholanadi.

Kirill alifbosidagi Ямин, Юсуф, Ешимбет, Ёдгор kabi ismlarni qisqartirib yozishga to'ri kelganda ularning birinchi harfi olinadi-da, ular shartli ravishda qisqartirib yozilganligi uchun nuqta qo'yiladi, masalan: Я.+урбонов, Ю. Султонов, Е. Носиров, Ё. Саъдиев.

Mazkur qisqartirib yozilgan harflarning har biri tartibida ikki nutq tovushi bor, yangi o'zbek alifbosida esa bu tovushlarning har biri ikki harf bilan ifodalanadi: я-ya, ю-yu, е-ye, ё-yo . Shunday bo'lgach, bunday ismlarni yangi alifboda qisqartirib yozishga to'g'ri kelgan hollarda ularning biringi tovushni ifodalaydigan harf yoziladi. Masalan: Yamin Qurbon-Y.Qurbon, Yunus Sultonov-Y. Sultonov, Yeshimbet Nosirov –Y. Nosirov, Yodgor Sa'diev-Y. Sa'diev.

Yorqinoy Yusuf qizi G'iyosova, Yelena Yegorovna Belskaya kabi ism-sarflar , Y.Y. G'iyosova, Y.Y. Belskaya shaklida yoziladi.

IV. Familiya hosil qiluvchi qo'shimchalar imlosi:

Familiyalar odatda –ev (-eva), -yev (yeva) hamda –ov (ova) qo'shimchalar bilan hosil bo'ladi:

1. Quyidagi hollarda –ev (-eva) qo'shimchalari qo'llaniladi.

a) So'z asosi -sh, -ch, y, tovush-harflari bilan tugasa:

Masalan: Tosh-Toshev, Ergash-Ergashev, Qilich-Qilichev, Ubay-Ubayev.

b) So'z asosi unli bilan tugasa: Jo'ra-Jo'rayev, Ota-Otayev,

d) –ov (-ova) qo'shimchasi quyidagi hollarda qo'llanadi;

So'z asosi -sh, -ch, y, hamda unlilardan boshqa tovush-harflar bilan tugasa qo'llaniladi:

Masalan: Turob-Turobov, Tolib-Tolibov, Olim-Olimov, Aziz-Azizova.

Eslatma: Yusuf, Sharif, Orif kabi ismlardan familiya hosil qilinganda talaffuzda f tovushi p aytilsa ham yozuvda f yozilishi ma'qul bo'ladi:

Masalan: Yusufov, Orifov, Sharifov kabi.

Ma'lumki, kirill alifbo-imlosi ikki nutq tovushini ifodalab o'zbekcha so'zlarda hamma vaqt bo'g'in hosil qiladigan я,е,ё,ю harfli so'zning birinchi yoki ohirgi bo'g'inini ko'chirishga imkon bermas edi (bir harf bo'lganligi sababli), yangi o'zbek imlosida mazkur hollarda bo'g'in ko'chirish imkoniyati paydo bo'ldi. Masalan: Ya-shin, Ya-rim, Yo-mon, tu-ya, ye-lim, dar-yo, atel-ye va hokozo.

1. Lotin yozuvidan “ъ” -ayrish belgisi ham chiqarilgan bo'lib uning o'rniga:

a) Rus tilidan olingan so'zlarda tashlanadi va bu belgidan keyin kelgan е, ю-harflari o'rniga -ye, -yu harflari yoziladi.

Masalan: raz`ezd-razyezd, pod`ezd-podyezd, ad`yutant-adyutant, kabilar.

b) Arabcha so'zlarda esa tutuq belgisiga almashtiriladi.

Masalan: аъло-a'lo, санъат-san'at, журъат-jur'at kabilar.

2. “ь” yumshatish belgisi.

A) Hozirgi lotincha o'zbek yozuvida yumshatish belgisi qabul qilinmaganligi uchun barcha so'zlar “ъ ” yumshatish belgisiz yoziladi.

Masalan: пальто-palto, альбом-albom, июнь -iyun.

B) Ayrim o'zlashma so'zlarda “ъ” ayirish belgisi vazifasida kelganda ham u tashlanadi va uning o'rniga “y” harfi qo'shib yoziladi.

Masalan: почтальон-rochtalyon, медальон-medalyon.

4. Ma'lumki hozirgi lotincha o'zbek alifbosidan “ц” harfi ham chiqarilgan bo'lib, bu harf sifatida kiritilmagan. “Ц” harfi ifodalangan nutq tovushi o'zbek tili imlosida ikki usulda beriladi.

1. Quiyidagi hollarda “s” harfi bilan yoziladi.

a) So'z boshida kelsa; Masalan: цирк-sirk, цех-sex, центнер-sentner, Цейлон чойи-Seylon choyi.

b) Undoshdan keyin kelsa: концерт-konsert, акция-aksiya, Франция-Fransiya, концепция- konsepsiya.

s) So'z ohirida kelganda: шприц-shpris, кварц-kvars, абзац-abzas kabi.

2. Unlidan keyin kelgan hollarda– «Ц» harfi o'rniga –ts yoziladi:

Masalan: Конституция-konstitutsiya, канализация-kanalizatsiya, лицей-litsey, милиция-militsiya, Греция-Gretsiya.

Tartib sonlarning imlosi.

1. Tartib son arab raqami bilan yozilsa, -nchi (- inchi) qo'shimchasi o'rniga chiziqcha qo'yiladi: 2009-yil 1- yanvar, 5-sinf, 60-yillar, 4-“A” sinf kabi.

2. Tartib son Rim raqaimda berilsa chiziqcha qo'yilmaydi.

X sinf, XXI asr, XXXI tom

Chiziqchalarning ishlatilishi:

1. Juft so'zdan qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlar chiziqcha bilan yoziladi (-)

Masalan: baxt-saodatli, xayr-xushlamoq.

2. Juft so'z qismlari orasida-u (yu) bog'lovchi bo'lsa shu bog'lovchidan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft qism ajratib yoziladi.

Masalan: do'st-u dushman, ona-yu bola, keldi-yu ketdi kabi.

3. Yetakchi va ko'makchi fe'llar bir xil shaklda bo'lsa chiziqcha bilan yoziladi:

Aytdi-qo'ydi, borasan-kelasan, keldi-ketdi.

4. So'zining -ma, -ba, yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi.

Masalan: ko'chama-ko'cha, rang-barang, dam-badam kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa bunday so'zlar qo'shib yoziladi.

Masalan: darbadar, ro'baro kabi.

Chiziqcha – imlo belgisi. chiziq esa tinish belgidir. Chiziqcha shakl jihatdan chiziqning uchdan biriga teng bo'ladi, masalan:

Bir-biringizga xayr-ehsonli, mehr oqibatli bo'lib, qo'l berib so'rashib yuringlar, shunda dillaringidagi dili g'ashlik ketadi.. ("Hadis"dan).

O'zbekiston – kelejagi buyuk davlat.

"O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ning "Chiziqcha bilan yozish" bo'limida chiziqchaning qo'yilish o'rinlari ko'rsatilgan, chunonchi: juft so'z va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, qovun-tarvuz, baland-baland tog'lar, uy-uyiga.....*

Kirill alifbosi asosidagi imlo qoidalarida kundalik sanalarda (1991 yil 31 avgust) raqamdan so'ng chiziqcha qo'yilmasligi qoidalashtirilgan edi (1-maktab, ammo 1-sentyabr). Yangi tuzilgan imlo qoidalarida bir xillikka erishish uchun yuqoridagi hollarda ham chiziqcha qo'yilishi ko'rsatildi: *1991-yil 31-avgust, 1-sentabr – O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik bayrami.*

2009-yil — Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

8. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" 2008-yil
9. Yangi tahrirdagi DTS - 2005-yil. Boshlang'ich ta'lim jo'rnali 5-son.
10. Sh. Rahmatullayev, A.Xojiyev O'zbek tilining imlo lug'ati–1995-yil
11. Y. Abdullayev – Hamrohim Toshkent – 1996-yil
12. Y. Abdullayev – Sovg'a Toshkent – 1996-yil
13. M. Muhammadiyeva- lotincha o'zbek alifbosini o'rganamiz Namangan – 1997-yil.
14. Y. Abdullayev, Sh. Yo'ldasheva- Yangi alifbo va imlo Toshkent-2000-yil.

TEST SAVOLLARI.

3. Lotin yozuvi avval qayerda paydo bo'lgan?

A) Qadimgi Rimda

B) Amerikada.

V) O'zbekistonda

G) Shvetsiyada

D) To'g'ri javob yo'q.

4. Lotin yozuviga qachon o'zgartirish kiritildi?

A) 1993- yil 2 -sentabrda

B) 1995 -yil 6 -mayda

V) 1997 -yil 13- sentabrda

G) Barcha javob to'g'ri

D) to'g'ri javob yo'q.

Mavzu: Muammoli ta'lim texnologiyasi asoslari. (2soat ma'ruza)

Maqsad: Darslarda muammoli ta'lim texnologiyasini amalga oshirish yo'llari haqida tushuncha berish.

Kutilayotgan natija: Tinglovchilarga boshlang'ich sinf darslarida muammoli vaziyatni hosil qilish va uni yechish malakalarini hosil qilish.

Reja:

I. Kirish.

1) Muammoli vaziyatning maqsad va vazifalari.

2) Muammoli ta'limning nazariy asoslari.

3) Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish yo'llari.

4) Muammoli vaziyatlar yaratish usullari.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlanirish Davlat umummilliy dasturi" talablari asosida ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda prinsiplari tanlanishi birinchi darajali ehtiyojga aylandi.

Hozirgi kunda har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalash borasida o'qitishning pedagogik texnologiyalaridan unumli va o'rinli foydalanishni taqozo etmoqda.

Rivojlanishga yuz tutgan Respublikamizning ta'lim tizimida xizmat ko'rsatib turgan barcha o'qituvchilarning pedagogik texnologiyalarini o'zlashtirish ishlari haqida amaliyotga qo'llashlari so'zsiz juda ahamiyatga molik.

*“Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamalakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro`-e`tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o`tib, ulg`ayib qanday inson bo`lib hayotga kirib borishiga bog`liqdir. Biz bunday o`tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”* – degan edi Prezidentimiz I.Karimov o`zining “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asarida.

Darhaqiqat farzandlarimizning kelajakda kim bo`lib yetishishi biz pedagoglarga bog`liq. Bas shunday ekan, biz har bir darsimizni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishimiz, o`quvchilarni fanlarga qiziqishlarini oshirishimiz zarur. Hozirgi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning juda ko`p turlari mavjud.

Muammoli ta`lim texnologiyasi ham shular jumlasidan bo`lib, bundan boshlang`ich va yuqori sinflarda keng foydalanish mumkin.

Muammoli ta`limning maqsad vazifalari.

“Muammoli ta`lim” tushunchasi uning etimologiyasiga ko`ra ko`proq so`zning mohiyati bilan bog`liq. Gap shundaki, o`quvchilar yangi bilim (mazmun) hamisha muammodir, o`zlashtirish metodlari esa muammoli hamda muammosiz bo`lishi mumkin.

Muammoli ta`lim bilan ana`naviy ta`lim orasidagi farqni biz ikki holatda ko`ramiz; ular asosan maqsad va pedagogik jarayonni tashkil qilish tamoyillariga ko`ra farq qiladi.

Tarkib topayotgan ta`lim tilining maqsadi – ilmiy bilish natijalarini o`zlashtirish o`quvchilarni fan asoslari bilan qurollantirish hamda ularda tegishli ko`nikma va malakalarni hosil qilishdir.

Muammoli ta`limning maqsadi – ilmiy bilish, bilimlar sistemasi natijalarini o`zlashtirishgina emas, balki bu jarayon natijalariga erishish yo`lini ham o`zlashtirishdir.

O`quvchining mustaqil bilishini shakllantirish hamda uning ijodiy qobiliyatini o`zlashtirishdir. O`quvchining muammoni to`liq yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o`rgatishdan iboratdir.

Shuningdek muammoli ta`limning umumiy vazifalari:

- o`quvchilar tomonidan bilimlar sistemasi va aqliy hamda amaliy afoliyat usullarini o`zlashtirish;
- o`quvchilarning mustaqil fikrlash va bilish hamda ijodiy qobiliyatlarini o`stirish;

Muammoli ta`lim bundan tashqari maxsus vazifalarga ham ega:

- bilimlarni ijodiy o`zlashtirish malakasini tarbiyalash;
- bilimlarni ijodiy qo`llashish malakasini hamda o`quv muammolarini yecha bilish ko`nikmasani hosil qilish;

— ijodiy faoliyat tajribasini tarkib topdirish kabilar shular jumlasidandir.

Muammoli ta'lim texnologiyasini amalga oshirishda uning nazariy asoslarini bilish zarur bo'ladi.

Muammoli ta'limning nazariy asoslari.

Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi – insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarini aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta'limning bosh maqsadi – o'quvchilarning muammoni to'liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat. Muammoli ta'limni amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko'zda tutushlari kerak. Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- o'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi;
- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;
- hal etish uchun yetarli bo'lmagan yoki ortiqcha ma'lumotlar yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;
- o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda topadi;
- o'quvchilarning o'zlari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:

- muammoni turli nuqtai nazardan o'rganish, tahlil qilish;
- solishtirish, umumlashtirish;
- faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;
- o'quvchilarning o'zlari aniq savolar qo'yishi va boshqalar.

Muammoli ta'lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, Qadimgi Gretsiyada muammoli savol-javoblar, Qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta'limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj.Dyui 1894-yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo'llagan. XX asrning 60-

yillarida bu yo`nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillariga kelib, amaliyotga keng joriy etildi.

Muammoli ta`limning asosiy g`oyasi bilimlarni o`quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo`yicha o`quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o`zlashtirishini ta`minlashdan iborat.

O`zbekistonda muammoli ta`limni qo`llash bo`yicha bir necha asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida o`quvchilarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatlari hamda go`zal nutq tarkib toptirilgan.

Suqrotona savol-javob hozirgacha eng samarali ta`lim usullaridan biri sifatida qo`llaniladi. Bunda o`quvchi chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to`g`ri so`zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligigga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o`rgatilgan. Masalan, suqrotona suhbatlar deganda o`qituvchining o`quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda uning fikrlashdagi noto`g`ri jihatlarini ziyraklik bilan aniqlagan holda ularni tuzatish yo`liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi.

Bunday suhbat bosqichlarini quydagicha soddalashtirib ifodalash mumkin:

1. Savol-javoblar orqali o`quvchining bilim darajasini va fikrlash qobiliyatini umumiy tarzda aniqlash.
2. O`rganilayotgan mavzuning mazmunini o`quvchi motivlariga muvofiqlashtirish. Bu, asosan, o`quvchining qiziqish va qobiliyatlariga mos bo`lgan misollar tanlash orqali amalga oshiriladi.
3. O`quvchini faol muloqotga olib kirish. Bunda asosan rag`batlantirish usullaridan foydalaniladi.
4. O`qituvchi o`zini bilmaydigan odamdek, o`quvchidek tutib, savollar berib boradi.
5. O`quvchining to`g`ri fikrlarini maqtash orqali uni yanada erkin va chuqurroq fikrlashga, so`zlashga jalb qilish.
6. O`quvchining xato fikrlarini aniqlab borish.
7. O`quvchining xato fikrlariga nisbatan to`g`ri fikrni o`qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiy asoslangan shaklda bayon qilish yoki tushuntirish orqali o`quvchi uchun muammoli vaziyat yaratiladi va o`quvchini o`z xatolarini o`zi tuzatishiga yo`naltiriladi.

Bundan ko`rinib turibdiki ushbu usul yuqori natija berishi shubhasiz bo`lib, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular o`qituvchining keng bilimga va ijodiy fikrlash qobiliyatiga, yuqori muloqot madaniyatiga, pedagogik mahoratga ega bo`lishi kabilardan iborat.

Muammoli ta`lim mashg`ulotlarini tashkil etish va boshqarish.

Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- o'quv fani va darslar mavzusini o'rgatishda ular bilan bog'liq muammoli masalalarni belgilash;
- ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini xisobga olish;
- zarur o'quv vositalarini tayyorlash;
- muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni ko'rsatish;
- topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish;
- o'quvchilarning muammoni hal etishda yo'l qo'yayotgan xatolarini, ularning sababini va xususiyatini ko'rsatish;
- o'quvchilarning noto'g'ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to'g'ri yo'lni topishlariga ko'maklashish va boshqalar.

Muammoli ta'lim jarayonini quyidagi uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin:

1. muammoli vaziyat hosil qilish.
2. muammoni yechish taxminlarini shakllantirish.
3. yechimning to'g'riligini tekshirish (olingan yechim bilan bog'liq axborotni tizimlashtirish orqali).

Muammoli vaziyat hosil qilishda quydagilar hisobga olinishi lozim:

Muammolar nazariy yoki amaliy yo'nalishda bo'ladi.

Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o'quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab-o'quvchilarning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa o'quvchilarda qiziqish hosil qiladigan bo'lishi kerakligidan iborat. Aks holda ko'zda tutilgan natijaga erishish imkoni bo'lmaydi.

Muammo o'quvchilarning bilim darajasiga hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo'lishi shart.

Hosil bo'lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o'zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'quvchilarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqishi sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog'liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo'ladi. Bunday tushuna olish esa o'quvchilarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi.

Muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi.

Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati, uning mantiqiyligi, mustaqilligi, ijodiyligi, ilmiyligi, asosliligi, uzviyligi,

tejamlliligi, maqsadliligi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyiligi, umumlashtirilganligi, xususoylashtirilganligi, kengligi, chuqurligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyligi darajasi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga intellektual sifatlar xotira, tasavvur, anglash va shu kabi psixologik jarayonlarning tezligi hamda boshqa parametrlari bilan bog`liq.

Intellektual taraqqiyot darajasi o`qituvchilarda hamda o`quvchilarda qancha yuqori bo`lsa, shunchalik yaxshi natijalarga erishish imkoniyati hosil bo`ladi.

Shunga ko`ra o`quvchilarda muammoni sezish, uni aniqlash, yechimiga doir taxminni to`g`ri belgilash va yechimning to`g`riligini tekshirish qobiliyatlaririvojlanib boradi.

Muammoni hal etishni 3 ta bosqichga ajratish mumkin:

1. Isbotlash – bu muammoning ilgari to`g`ri deb tan olingan sabablari bilan bog`liqliklarini topish asosida amalga oshiriladi.
2. Tekshirish – buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammoni hosil bo`lishi to`g`riligini asoslash bilan amalga oshiriladi.
3. Tushuntirish – bu muammoning yechimi nima uchun to`g`riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi.

Muammoli vaziyatlar yaratish usullari.

Quyida muammoli ta`limga asoslangan o`qitish jarayonini hosil qilishga mo`ljallangan pedagog texnologiyalardan namunalar keltiramiz.

1. Shaharning qoq o`rtasida qadimdan qolib ketgan ulkan bir tosh joylashgan bo`lib, bu tosh shaharning husnini buzib turibdi. Shu ulkan toshdan qanday qutulish mumkin?

Ilgarilari ham undan qutilish yo`lini ko`p qidirishgan; arqon yordamida bir qancha otga sudratib olib chiqmoqchi bo`lishganda arqonlar uzulib ketgan; toshni mayda bo`laklarga bo`lish uchun texnika yaramagan.

Toshdan qutulish uchun nima qilish kerak?

2. Liliput 9-qavatda yashaydi. U har kuni uyidan ishga ketishda liftida tushadi. Ishdan uyiga chiqishda esa 5-qavatgacha liftida chiqadi qolgan 4 qavatini esa piyoda (pillapoyalarda) yurib uyiga chiqadi.

Nima uchun liliput 5-qavatga yetganda liftidan chiqib oladi?

3. Dars boshlangandan 10-15 daqiqa o`tgach bir o`quvchi darsga kech qolib kirdi. Siz shunda nima qilgan bo`lar edingiz?

4. Dars paytida sinf xonasiga arilar kirib qoldi. Arini haydab chiqarishning iloji yo`q. Chunki qochadi yoki sinfning xohlagan tomoniga uchub borishi mumkin. Shunda siz nima qilgan bo`lar edingiz?

Fanlarni o`qitishga doir muammoli vaziyatlar

Ona tili

Sahiy quyosh olamga nur sochmoqda. Bu gapda ega va kesim mavjud. *Quyosh sochmoqda.* Ega va kesim gapning bosh bo`lagi hisoblanadi va bular gapning asosini tashkil qiladi. Muammoli vaziyat hosil bo`ladi.

Nima uchun ega va kesim gapning grammatik asosini tashkil qiladi?

Nima uchun boshqa bo`laklar gapning ikkinchi gapning ikkinchi darajali bo`lagi deyiladi?

Muammoni yechish:

Chunki bosh bo`laklar gapning asosini tashkil qiladi. Gapdagi boshqa so`zlar esa ularga bog`liq. Masalan berilgan gapda *Quyosh sochmoqda.* Bu bosh bo`lak. Gap bo`la oladi. *Sahiy, olamga, nur.* Bu ikkinchi darajali bo`lak. Gap bo`la olmaydi.

Xulosa, bosh bo`laklardan, xatto gap bosh bo`laklarning bittasidan iborat bo`lishi mumkin, ikkinchi darajali bo`laklardan gap bo`lishi mumkin emas. Mana nima uchun gapning biri bosh bo`lak, boshqalari ikkinchi darajali bo`lak deb ataladi.

Birinchi gapdagi ikkinchi darajali bo`laklarga savol qo`ying.

Ikkinchi darajali bo`laklar bosh bo`lklarga aloqador bo`lmasligi mumkinmi?

Gapni ikki qismga bo`ling. Buni siz qanday qila olasiz?

Xulosa: gapda hammasi bosh bo`laklar atrofida tuziladi (guruhlanadi), mana shuning uchun ham gapning bosh bo`lagi gapning asosidir.

Tinish belgilarini o`zgartirish orqali ham muammoli vaziyatlarni hosil qilish mumkin. Bunda gap mazmuni mutloq boshqacha ma`no beradi. Masalan: *Shafqat, yo`q o`lim.* *Shafqat yo`q, o`lim.* Bu ikki gapda ham vergulning o`rni almashtirish orqali ikki xil ma`no berishini anglash mumkin.

Matematikaga oid muammoli mashqlar

16 Q 10 : 2 q 21

16 Q 10 : 2 q 13

Nima uchun bir xil ko`rinishdagi misolda ikki xil natija chiqdi?

Ikkinchi natija to`g`ri bo`lishi uchun ifodada nima yetishmaydi?

Muammoni yechish:



Ikkinchi ifodadagi ko`rinishda amallar tartibi noto`g`ri bajarilgan. Natija 13 chiqish uchun 16 Q 10 qavs ichida bo`lishi kerak.

18 metr gazlamadan 6ta ayollar ko`ylagini tikish mumkin. 20 metr gazlamadan shunday o`lchamda 7ta ayollar ko`ylagini tikish mumkinmi?


Bir yilda 12 oy bor. Ular yanvar oyidan boshlangan bo`lsa quydagi oylarning ketma-ketligi to`g`ri berilganmi?

Yanvar, fevral, mart, aprel, may, iyul, iyun, avgust, sentabr, oktabr, noyabr, dekabr.

Quyidagi shakllarni qog'ozni buklash yo'li bilan hosil qilish mumkinmi?



4ta cho'pni shunday o'zgartiringki, 2ta teng 3< dan iborat 4< hosil bo'lsin.



Boshqa fanlardan ham shu kabi muammoli mashqlarni o'tkazish mumkin.

Maktabda har bir o'qituvchi ayrim turdagi muammoli o'qitish mashg'uloti o'quv materiallarini amalda qo'llash uchun tayyorlashini tashkil qilish lozim. O'qituvchilar o'z mutaxassislik fanlari bo'yicha o'zlari tanlagan mavzudagi darsning eng maqsadga muvofiq muammoli o'qitish turlaridan foydalanib o'tkazish yuzasidan dars ishlanmalari tayyorlashlari va shu asosda ochiq darslar o'tkazib borsalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" 2008-yil
2. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov "Zamonaviy pedagogik texnologiya" 2008-yil
3. J.Yoldoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yo'ldosheva "Interfaol ta'lim – sifat kamoloti" 2008-yil
4. H.Mavlonov, N.Uluqov, F.Boynazarov "Yangi pedagogik texnologiya asoslari" 2007-yil
5. 1-4-sinf darsliklari.

Mavzu: Kuni uzaytirilgan guruhlarada harakatli va milliy o'yinlar.

Maqsad: Tinglovchilarga harakatli va milliy o'yinlar haqida tushuncha berish.

- Harakatli va milliy o'yinlarning inson salomatligiga ta'siri haqida tushuncha berish.

Kutilayotgan natija: Tinglovchilarda KUG larda o'tkaziladigan o'yinlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Ko'rgazma:

O'yinlarga doir turli qo'llanma, plakati va boshqalar.

Reja:

1. O'zbekiston sportini rivojlantirishda prezidentimiz I.Karimovning tashabbusi.
2. Kuni uzaytirilgan guruhlarda harakatli o'yinlarning maqsad va vazifalari.
3. O'zbekistondagi jahon chempionlaridan namunalar.
4. 1-4-sinf kuni uzaytirilgan guruhlarda o'tkaziladigan harakatli va milliy o'yinlardan namunalar.
5. Xulosa.

“Sport odamni mard, matonatli,
bardoshli qilib tarbiyalaydi”

I.A.Karimov

O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro musobaqalar tashkil etilib, jahon miqyosiga olib chiqish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanmoqda. O'zbekiston sporti esa yildan-yilga yuqori pog'analarga ko'tarilmoqda.

O'quvchilarni bilim olishi va komil inson bo'lib yetishishlarida sport muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muskullari bo'sh va tez o'suvchan bo'ladi. Ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishda oila va tarbiyachi, o'qituvchilar muhim ahamiyat kasb etadi. Respublika Xalq ta'limi Vazirligi tomonidan 1-4-sinflar uchun maktab ixtiyoridagi soatlardan jismoniy tarbiya darslarida foydalanish mumkinligi ko'rsatiigan. Bolalarni qiziqqan sport turlariga qarab turli yo'nalishlarda sport mashg'ulotlariga jalb qilinadi.

Mashg'ulotlarda urf-odatlarimiz milliy an'alarimizni hisobga olish zarur. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishamiz. Har bir o'yinni o'tkazishdan oldin gimnastik mashg'ulotlar o'tkaziladi. Prezidentimiz I.A.Karimov mamlakatimizda sportni yuqori saviyaga ko'tarish, O'zbekiston davlatini butun jahonga tanitish maqsadida bor imkoniyatlarni ishga solmoqdalar. Shuning uchun O'zbekiston bayrog'i sportchilar sharafiga tez-tez ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1996-yil 17-yanvardagi 27-sonli «O'zbekiston futbolini rivojlantirish printsiplari va uning tashkiliy asoslari tubdan takomillashtirish to'g'risidagi qarori O'zbekiston kurashini jahon miqyosiga olib chiqish maqsadida», «Kurash asosiyatsiyasi» tuzildi. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari uchun 2-soatdan vaqt ajratildi. Darslardagi «Sport o'yinlari» bo'limiga ham o'zgartirishlar kiritib 3-sinfdan boshlab basketbol, voleybol, qo'l to'pi o'yinlariga vaqt ajratildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov davlatimiz bayrog'ini jismoniy tarbiya sharafiga tez-tez ko'tarib turibdi.

Harakatli va milliy o'yinlarni asosiy maqsadi va vazifasi o'quvchilarni epchil, chidamli, har xil to'siqlarni yengish, baquvvat qobiliyatlarini shakllantirishdan iboratdir.

O'quvchilarning ana shunday sog'lob, baquvvat bo'lib yetishlarida to'g'ri tashkil etilgan harakatli o'yinlarning ahamiyati katta.

Tarbiyachilar va o'qituvchilar harakatli o'yinlarning tashkiloti va rahbarlaridir.

Harakatli o'yinlar bolalarni jismoniy jihatdan yaxshi unib o'sishlariga, salomatliklari yaxshilanishiga, chiniqishlariga, organizmlarining va umumiy ish qobiliyatlarining yanada mustahkamlanishiga yordam beradi. Bolalarga harakatli faoliyatning xilma-xil sharoitlarda erkin harakat qila olish imkonini beradigan zarur bilimlarni berish va kerakli harakat malakalarini hosil qilish lozim. Ularda turmush faoliyatiga yordam beradigan aqliy va irodaviy hislatlarni tarbiyalash zaruru. Bundan tashqari, bolalarda turli o'yinlarda, jismoniy mashqlarga shuningdek, kun tartibiga rioya qilishga qiziqish uyg'otish, harakatli o'yinlarni mustaqil ravishda tashkil qilish va o'tkazish uchun zarur bilim va malaka hosil qilish shart.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bunday vazifani amalga oshirish bilan bir qatorda o'quvchilarda axloq normalarini tarkib topishiga, shuningdek, estetik va mehnat tarbiyasi vazifalarining ham bajarilishiga erishish lozim.

Harakatli o'yinlarni o'tkazishda tarbiyachining tashkilotchilik va tarbiyaviy roli juda ham ma'uliyatlidir.

O'yinni o'rganish jarayonini shunday uyushtirish kerakki, unda bolalar o'rtoqlarcha munosabatda bo'lishni, kollektivchilik, vatanparvarlik, ijtimoiy foydali mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgansin.

O'yinni to'g'ri tanlash va bolalar bilan to'g'ri o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Harakatli o'yinlar yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish kabi mashqlar bola harakatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Harakatlarning takomillashib borishi bilan birga, jismoniy qobiliyati ham taraqqiy etib boradi, yurak va nafas sistemasining faoliyati yaxshilanadi. I.P.Pavlov ta'biri bilan aytganda, «Harakat bu hayotning asosiy ko'rinishidir».

O'yinlar bolalarning faqatgina jismoniy barkamol bo'lishi uchunгина emas, balki aqliy va ahloqiy jihatdan tarbiyalash uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Harakatli o'yinlar kuni uzaytirilgan guruh o'quvchilari uchun xuddi bayramdagidek o'tkazilishi lozim. Harakatli o'yinlar o'quvchilar hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'yin orqali bolalar epchil, chaqqon, baquvvat, sog'lom chidamli bo'lib voyaga yetadilar. Shundagina vatanimiz ravnaqi yo'lida bor kuch-g'ayratlarini sarflay oladigan komil insonlar bo'lib yetishadilar.

O'quvchilarning o'yinlar orqali bir-birlari bilan do'stona munosabatlari yanada tarbiyalanadi, o'z guruxining sha'ni-sharafi uchun kurashish hissi tarbiyalanadi. Bu

degan soʻz oʻquvchilar oʻz vatanini xalqini sevadigan komil insonlar boʻlib yetishishlariga asos boʻladi.

Maktabgacha taʼlim muassasalari va maktablarda toʻgʻri tashkil etilgan harakatli oʻyinlar oʻquvchilarni kelajakda Vatanimizning faxri boʻlgan sport chempionlarini yetishib chiqishigacha olib boradi.

Ana shunday chempionlardan biri Muxammadali Abdullaevdir....

Muhammadali Abdullaev 1973-yil 11-noyabrda Andijonda Oltin koʻl tumanida tugʻilgan. U 13 yoshidan boshlab boks bilan shugʻullangan. 1996-yilda Amerikada Atlanta shahrida oʻtgan Olimpiada oʻyinlari qatnashchisi. Jahon Kubogi musobaqalari gʻolibi M.Abdullaev katta yutuqlari uchun «Oʻzbekiston iftixori» faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

Lazizbek Zokirov 1976-yil 3-sentabrda Jizzax tumanida tugʻilgan. Boks boʻyicha Jahon Kubogi gʻolibi «Oʻzbekiston iftixori» faxriy unvoni bilan mukofotlangan. Yoshligidan boksga qiziqqan. L.Zokirov 1995-yilda boʻlgan Osiyo chempionatida kumush medal olib, mutaxassislar va ustozlar ishonchini oqladi.

Rustam Rajabov. 1957-yil 17-noyabrda Angrenda tugʻilgan shahardagi 16-maldabda oʻqigan. Alpinizm boʻyicha xalqaro sport ustasi. «Everest» choʻqqisini zabt etgan birinchi oʻzbek sportchisi «Doʻstlik» ordeni bilan taqdirlangan.

Davron Muhamedov. 1961-yil 29-sentabrda tugʻilgan. Toshkentdagi 148-maktabda tahsil olgan. Ot sporti boʻyicha xalqaro sport ustasi. 1998-yil Qirgʻiziston poytaxti Beshkekda boʻlib oʻtgan musobaqada jahon Kubogini qoʻlga kiritgan.

Shuhrat Ahmedov. 1963-yil 17-mart kuni Chirchiq shahrida tugʻilgan. 12-Osiyo oʻyinlarida 5 ta medal olgan. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sportchi. Merganlar sardori Shuhrat Ahmedov «Shuhrat» medali bilan mukofotlangan.

Saida Iskandarova. 1980-yil 12-martda Toshkentda tugʻilgan. 1997-yilda 110-maktabni tamomlagan shu yili jismoniy tarbiya institutiga kirgan. Suzish boʻyicha Xalqaro Klassdagi sport ustasi. Oʻzbekistonning bir necha bor chempioni. II Markaziy Osiyo oʻyinlarining kumush va bronza medali sohibi osiyo va okeaniya chempionatining kumush va bronza medalini olgan (1998-yil Malaziya),

Biz quyida boshlangʻich sinf kuni uzaytirilgan guruhlarda oʻtkazilishi mumkin boʻlgan harakatli milliy oʻyinlardan namunalar keltiramiz.

OQSOQ QARGʻA.

Katnashuvchilar bir necha komandaga bulinib maydonchani ikki chekkasiga joylashadilar. Har bir komandaning birinchi oʻyinchilariga arqoncha yoki roʻmolcha beriladi.

Rahbarning signali bilan komandalarning birinchi o'yinchilari bir oyoqlarining boldiridan arqoncha yoki ro'molcha bilan ilib oladilar va bir oyoqlarida (oqsoq qarg'a singari) o'rta chiziqqacha sakrab boradilar. So'ng ikki oyoqlab orqaga yugirib kelib mashqni davom ettirishi uchun arqonchani navbatdagi o'yinchiga uzatadilar. Mashqni tezroq bajargan komanda g'olib chiqadi. Arqoncha (ro'molcha) topilmagan taqdirda, o'yinchilar oyoqlarini bir yoki ikkala qo'llari bilan tutib yugurishlari mumkin.

O'yin sharti: 1. O'yinchi arqoncha (ro'molcha) bilan oyog'ini ko'tarib olmaguncha sakrashni bajarishi mumkin emas. 2. Arqonchani (ro'molchani) o'yinchi olmaguncha ikki qo'llab tutib turish kerak. 3. Har bir o'yinchi o'rta chiziqqacha borib qo'li bilan unga tegishi shart.

Yuqoridagi qoidalarni buzgan o'quvchilar jarima ochkolarini oladilar. Ko'proq jarima ochkolar olgan komanda o'yinchilari mashqni tez bajargan bo'lsalar ham yutqazgan hisoblanadilar.

ZUV-ZUV.

1-variant. Yugurish chizig'i oldida o'pkani to'ldirib nafas olinadi va "zuv-v-v-v..."

Deb ovoz chiqargan holda yuguriladi. G'alaba bir nafas olib eng uzoq masofaga yugurganga beriladi.

2-variant. Bir sportchi ikkinchisini yelkasiga o'tirib oladi va "Zuv-v-v-v..." deyishni boshlashi bilanoq uni ko'tarib olgan sportchi oldinga yuguradi. Bir nafas olishda eng uzoq masofaga yugurgan juft bolalar g'olib chiqqan hisoblanadilar.

OQ TERAQMI, KO'K TERAQMI.


O'yinga tayyorlanish. Bolalar barobar ikki komandaga bo'linib zal yoki maydonning qarama-qarshi tomonida saf tortib, komanda a'zolari bir-birldari bilan qo'l ushlab turadilar.

O'yin tasviri. Rahbarning signali bilan komandalardan biri ikkinchi komandaga qarab "Oq terakmi, ko'k terakmi?" deydi. Ikkinchi komanda ularga javoban "Bizdan sizga kim kerakmi?" deydi. Birinchi komanda "Falonchi kerakmi", deb qarshi komanda bolalaridan birining nomini aytadi. Nomi aytilgan bola qarshi komanda tomoniga yuguradi. U ko'l ushlab turgan bolalarning qo'lini uzishi kerak. Agar uzolsa, shu qo'li uzilgan bolalardan birini o'z komandasiga olib ketadi. Agar uzolmasa, o'zi shu komandada qoladi. Belgilangan vaqt ichida qaysi komanda ko'proq bola tuplasa, shu komanda yutgan hisoblanadi.

*O`yin qoidalari:* 1.Qo`llarni (zanjirni) bir zarba bilan uzish kerak. Takror urinishga yo`l qo`yilmaydi. 2.Zanjir faqat ko`krak bilan urilib uziladi.

*O`yin varianti.*Komanda bir paytda qarshi komandaning ikki –uch o`yinchisini chaqirishi mumkin.

*O`yinning ta`lim-tarbiyaviy ahamiyati.*Bu o`yin bolalarda kollektiv oldida javobgarlik xissini, qat`iyatlikni tarbiyalaydi, ularni tez harakat qilishga o`rgatadi,kuchini oshiradi.



SOQQA-SOQQA YOKI TOSH TASHLASH O`YINI.

*O`yinga tayyorlanish.*Maydonda chiziq chizilib o`ynovchilar chiziqning orqasida turadilar.Har bir bolada ikkitadan soqqa (sharcha) bo`ladi.O`yinni kim boshlashi chek tashlash bilan aniqlanadi.

*O`yin tasviri.*Boshlovchi ikkala soqqani belgilangan chiziq orqasida turib 3-4 metr masofaga tashlanadi. Ikkinchi o`yinchi o`zining ikkala soqqasini otib, oldiniga ikki soqqaga tekkizishga harakat qiladi. Agar bir soqqaga tekkizsa- bir ochko, ikkalasiga tekkizsa- ikki ochko oladi.Agar tekkiza olmaga uning soqqalari ham maydonda qoladi.

Ma`lum vaqt ichida eng ko`p ochko olgan bola g`olib hisoblanadi.

*O`yin qoidalari.* 1. Soqqa tashlovchi siziqdan o`tishi yoki uni bosishi mumkin emas. 2.Har bir o`ynovchi ikkala soqqasiri bir martagina tashlashi mumkin.

*O`yinning ta`lim-tarbiyaviy ahamiyati.*Bu o`yin bolalarni merganlikka o`rgatadi.

SICHQON- MUSHUK.


O`ynovchilar bir-birlarini qo`llarini ushlab doira bo`lib turadilar.Ikki onaboshi saylanib, ulardan biri- “sichqon”, ikkinchisi –“mushuk” bo`ladi. “Mushuk” doira tashqarisida, “sichqon” esa doira o`rtasida turadi.

*O`yin tasviri.* O`yin rahbarning signali bilan boshlanadi.”Mushuk”ning vazifasi quvish, “sichqon”niki esa tutqich bermaslik bo`ladi. “Sichqon” butunlay erkin

bo`ladi. U istasa doira tashqarisiga ham chiqishi mumkin, doirada turganlar qo`llarini ko`tarib unga yo`l beradilar, “mushukni” esa to`sib qoladilar. Agar “mushuk” “sichqon”ni tutib olsa, boshqa mushuk-sichqon saylanib, o`yin davom etaveradi.

*O`yin qoidalari.* 1. Agar “mushuk” belgilangan vaqt ichida “sichqon”ni tutolmasa, ularning o`rniga boshqa bolalar chiqadi. 2. “Sichqon” tez-tez doira tashqarisiga ham chiqib turishi kerak. 3. “Mushuk” doira ichiga kirayotganida yoki chiqayotganida doirada turganlarning qo`llarini uzib o`tishi mumkin.

O`yinning ta`lim-tarbiyaviy ahamiyati. Bu o`yin bolalarda uyushqoqlik, intixzomlilikni tarbiyalaydi, ularni qo`shilib, tez harakat o`ilishga o`rgatadi.



KARTOSHKA EKISH.

O`yinchilar 3-4 komandaga bo`linib, bir kishilik qatorlarga saflanib, start chizig`i orqasida turadilar. Qatorlardagi birinchi o`yinchilar 5-10 dona kartoshka solingan chelakcha yoki xalta ushlab turadilar. Start chizig`idan 20-30 metr narida har bir qator ro`parasida 5 tadan aylana chiziladi. O`qituvchining signali bilan har bir o`yinchi belgilangan aylanalargacha yugirib borib, har bir aylanaga ikkitadan kartoshka qo`yadida, o`z qatoriga qaytib, xaltani navbatdagi o`yinchiga berib, qator oxiriga borib turadi.

Navbatdagi o`yinchilar birinchilardan olgan xaltalarni ko`tarib, ekilgan kartoshkani kavlab oladilar. Kartoshkani tez ekib va tez terib olgan qator g`olib hisoblanadi.

NARSANI YERDAN OLMOQ.

Ikkita o`yinchi bitta chiziqda turib, gimnastika tayoqchasini uchidan ushlab bir-birlaridan 1-2 qadam narida turadilar. Polga biror narsa qo`yiladi.

O`yinchi signal berishi bilan raqibini tortib, polda yotgan narsani oladi.

SEMIR PUFAGIM

Hamma o`yinchilar yonma-yon qo`l ushlab, doira hosil qilib turadilar.

Bolalar: “Semir, pufagim, kattaroq semir, yorilmasdan shunday tur”, deb doirani kengaytira boshlaydilar. Doira yetarlicha kengaygandan keyin o`qituvchi: “Pufak yorildi”, deydi. Bolalar qarsak urib, o`tirib oladilar.

O`qituvchi o`yinchilardan birini-yamoqchini pufakni yamash uchun yuboradi. U doira buylab yugurib. Har bir o`yinchiga qo`l tekizadi. Yamoqchini qo`li tekkan bola o`rnidan turadi.

Yamoqchi hamma o`yinchilarga qo`l tekkizib bo`lgandan sung bolalar yana qo`l ushlab turadilar.

QUVLASHMACHOQ.

Maydon chiziq bilan chegaralanib chiqiladi. Bitta onaboshi quvlovchi tayinlanadi. Boshqa o`yinchilar uning atrofida doira hosil qilib turadilar.

Quvlovchi bir, ikki, uch deydi. Hamma bolalar har tomonga yugurib ketadilar, quvlovchi ularni quvlaydi va tutadi. Qochayotganlar xavf tug`ilgan paytda o`tirib olishlari mumkin, o`tirib olganlarni quvlovchi tutmaydi. Quvlovchi tutib olgan bola onaboshi bo`ladi. O`yinni istagan vaqtgacha o`ynash mumkin.

Bu o`yinining sakrash bilan quvlashmachoq o`ynaladigan turi xam bor. Bu ham yuqorida ta`riflangandek o`ynaladi. Farqi shuki, bunda bir oyoqda sakragan bolani tutish mumkin emas.

BIZ QUVNOQ BOLALARMIZ.

O`ynovchilar maydonning bir tomonidan chiziqdan tashqarida turadilar. Maydonchani qarama-qarshi tomonida ham huddi shunday chiziq o`tkazilgan bo`ladi. Yon tomonida ikkita chiziq o`rtasida onaboshi turadi. Onaboshini o`qituvchi yoki bolalarning o`zlari tayinlaydilar. O`ynovchilar baravariga:

Biz quvnoq bolalarmiz.

Yugurib, sakrashni sevamiz,

Qani. Bizga yetib ko`r,


Bir, ikki, uch-tutib ko`r,-deydilar.

Tutib ko`r suzidan sung bolalar maydonning ikkinchi tomoniga yugurib o`tadilar, onaboshi esa ularni quvlab, tutadi. Chiziqqa yetib borgunga qadar onaboshining qo`li tekkan bola tutilgan hisoblanadi va u chetga chiqib turadi. Bolalar 3-4 marta yugurib o`tgandan sung tutilganlar sanab chiqiladi va boshqa onaboshi saylanadi. O`yin 5-6 marta takrorlanadi. Bolalar 2-3 marta yugurib o`tganda ham onaboshi birorta ham bolani tuta olmasa, boshqa onaboshi tayinlashi mumkin.

TO`PNI BER.

Bolalar teng ikki guruxga bo`linib, bir birlarining karama-o`arshisida 5 m masofada saf tortib turadilar. Ular o`rtasida diametri 2,5-3 m uchta doira chiziladi. Har bir doiraning o`rtasida bosketbol to`pi qo`yilgan bo`ladi.

O`qituvchining “To`plar tomon yugaring” degan signalidan so`ng ikkala komandaning birinchi uch o`yinchisi doiraga borib. Qarshi komanda o`yinchilaridan to`pni tortib olishga harakat qiladilar. To`pni tortib olgan o`yinchi o`z komandasiga 2 ochko keltiradi. To`pni ololmagan o`yinchi 1 ochko oladi. O`yinda ko`p ochko to`plagan komanda yutgan hisoblanadi.




TOSH KO`TARUVCHI.

O`quvchilar 3-4 komandaga bo`linadilar. Komandalar start chizig`i orqasida saf tortib turadilar. Xar bir komanda qarshisiga 8-10 m masofada stulchalar qo`yib qo`yiladi.

O`qituvchi signalidan sung birinchi o`quvchilar stulchalar tomon yuguriyu borib, uning ikkala oyoqchasini ushlab, yuqoriga ko`tarib, asta-sekin pastga tushuradilar. Kim ko`p ko`tarishga musobaqalashadilar. So`ngra orqaga qaytib kelib, ikkinchi o`yinchilarning qo`llariga qo`l tekkizadilar. O`yin shu yo`sinda davom etadi.


Qaysi komanda o`yinchilari stulchalarni ko`proq ko`targan bo`lsa, o`sha komanda g`olib chiqadi.



ILON IZI BO`LIB YuRISH

O`quvchilar ikki komandaga bo`linib, start chizig`i orqasida bir qatordan saf tortib turadilar. Har bir komanda qarshisida bir-biridan 0,5m masofada 6-8 ta tuldirma to`p turadi. Komandalarning birinchi o`yinchilari ko`zlarini bog`lagan holda to`ldirma to`p oldida turadilar.

O`qituvchining komandasidan keyin ko`zi bog`langan o`quvchilar ilon izi bo`lib to`p orasidan goh chap, goh o`ng tomondan o`tishlari kerak. So`ngra ko`zlarini yumib, estafetani ikkinchi o`yinchilarga beradilar, so`ngra uchinchi o`yinchilarga gal keladi va hakozo. To`plarga tegmasdan o`tgan o`yinchilarga 2 ochko beriladi. O`yinda ko`p ochko to`plagan komanda g`olib hisoblanadi.




UY BASKETBOLI.

Bolalar ikki komandaga bo`linib, bir qatordan saf tortib turadilar. Ulardan 5-6 m narida stul ustida chelak yoki savatcha qo`yilgan bo`ladi.

O`qituvchi komandasidan keyin komandaning birinchi o`yinchilari 5 tadan tennis to`pini savatchaga tashlaydilar. Sungra ikkinchi, uchinchi o`yinchilar tashlaydilar. 5 imkoniyatdan savatchaga ko`proq to`p tushirgan komanda o`yinda yutgan bo`ladi.

To`pni otishda chiziqdan chiqmaslik kerak.

To`pni pastdan yuqoriga tashlash lozim.



20-расм.

HALQACHANI KIYGIZISH.

Bolalar teng ikki komandaga bo`linadi va ular bir qatordan saf tortib turadi. Simdan yoki karton qog`ozdan diametri 10-15 sm 8-6 ta halqacha qilinadi. Komandalarning qarama-qarshi tomonida 5-6 m masofada oyoqlari yuqoriga ko`tarilgan stulcha bo`ladi.


O`qituvchi komandasidan keyi komandalarning birinchi o`yinchilari stulchaning har bir oyoqchasiga 2 tadan halqacha kiygizishi kerak. Qaysi komanda ko`p va aniq tushirgan bo`lsa, o`sha komanda yutgan hisoblanadi.

ChILLAKKA IP O`RASH.


O`quvchilar teng ikki komandaga bo`linadilar. 10-12 m kanopning har bir uchi tayoqcha o`rtasiga bog`lanadi. Kanopning o`rtasiga belgi qilib qizil lenta bog`lab qo`yiladi.

Ikkala komandaning birinchi o`yinchilari tayqchani ikki tomondan tortib turadilar.

O`qituvchining komandasidan keyin har bir bola o`z tomonidan tayoqchaga kanopni o`ray boshlaydi. Kim birinchi bo`lib kanopni belgilangan joygacha o`ra bo`lsa, o`sha o`yinchiga bir ochko beriladi. So`ngra ikkinchi, uchinchi o`yinchilar o`raydi va hakoza. Ko`p ochko to`plagan komanda yutgan hisoblanadi.



21-расм.



22-расм.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bolalarni mehnatsevarlik va jamoat oldida o'z burchini his qilish ruhida tarbiyalash va shuningdek ularning jismoniy faolliklarini oshirishda harakatli va milliy o'yinlarning ahamiyati katta. Bola maktabga qadam qo'ygan birinchi kundan boshlab unda mehnatga nisbatan muhabbat uyg'onadi, uyushqoqlik, ishchanlik va boshlagan ishini ohiriga yetkaza bilish xususiyatlari tarbiyalanib boradi. Buning uchun tarbiyachining barcha vositalardan jumladan bolalarning sevimli o'yinlaridan foydalanishlari samarali natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standartlari 2005-y.
2. Runi uzaytirilgan guruhlar haqida Nizom 6G'7G'1 sonli buyrug'i 2004-y.
3. 1001 o'yin 1996-y.
4. O'zbekiston Respublikasi iftixorlari 2000-y.

